

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)

YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
O'RINOV A.A. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)
ORIPOV A. (O'zbekiston)

Muharrir:

Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'ozi.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,
2022.**

TARIX

Sh.Hakimova	
O'zbekistonda elektroenergetika sanoatining huquqiy-meyoriy asoslari	113
J.Bo'tayev	
XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida samarqand viloyati qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar.....	118
I.Bohodirov, B.Jurayev	
Turkistonda XIX asr o'rtalarida armiya va harbiy ta'lim	123
A.Yuldashev	
Davlat, boshqaruv va rahbarlik masalasiga oid tarixiy qarashlar va zamonaviy yondashuvlar.....	129
B.Ataxanov	
Mustaqillikning ilk yillarda o'zbekistonning Belarus respublikasi bilan savdo-iqtisodiy munosabatlарining o'ziga xos xususiyatlari	136
Sh.Husanova	
Qadimgi Farg'onanening samoviy tulporlari	140
N.Komilov	
Turkiston muxtoriyati bosh vaziri o'rinnbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari.....	146
G'.Raxmonov	
Farg'ona vodiysida suvdan foydalanishniyaxshilashda suvni tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etishning qulayliklari.....	151
O.Abdunosirova	
Iskandar Mirzo – madaniyat va san'at homiysi sifatida	155
Z.Abdullayev	
Turkistonda mol-mulk musodarasi va rekvizisiya	158
S.Istrolova, G.Karimova	
Tarix fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni loyihalashtirish.....	163

ADABIYOTSHUNOSLIK

Z.Tashtemirova, E.Gizdulin	
Lirk she'riyatning turga oid xususiyatlari	167
N.Sidikova	
Yurt tarixi va el taqdiri talqinlari	173
A.Eshdavlatova	
Rauf parfi ijodida erkin ruhning nostandard isyoni ifodasi	177
J. Xalliyev	
Ogahiy tarixiy va lirk asarlarida falsafiy-ma'rifiy istilohlar istifodasida mushtaraklik	182
E.Qurbanova	
Yassaviy "Pirim" deb ulug'lagan zot	186

TILSHUNOSLIK

K.Yusupova	
Imperativ konstruksiyalarda so'z tartibi.....	190
Yu.Shuxratova, A.Mamajonov	
O'xshatish munosabatini ifodalovchi morfologik vositalar.....	195
A.Yuldashev	
So'z yasalishining kognitiv aspekti	198
X.Dusmatov	
O'zbek milliy so'z o'yinlarining reklama matnlarida ifodalanishi.....	204
N.Umarova, D.Madazizova	
Tilshunoslikda "argo" tushunchasi talqinlari.....	211
G.Majidova	
Til darslarida madaniyatni qamrab olish	215
L.Yo'idosheva	
Muzeylarda turli xil mashg'ulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish	220
N.Mamajonova	
Til darslarida lug'at boyligini oshirishni ilmiy tadqiq qilish	224
G.Isakova	
"Qanotli so'z" va "sitata" tushunchalarining o'zaro farqi.....	229
Z.Alimova	
Ayrim forsiy frazeologik birliklarning o'zbek tilida qo'llanilishi xususida	233
И.Порубай	
Zamonaviy lingvistik bilimlarda "axborot texnologiyalari diskursi" belgilash ta'rifi	238

**FARG'ONA VODIYSIDA SUVDAN FOYDALANISHNIYAXSHILASHDA SUVNI TEJOVCHI
SUG'ORISH TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING QULAYLIKLARI**

**ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕДРЕНИЯ ВОДОСБЕРЕГАЮЩИХ ТЕХНОЛОГИЙ ОРОШЕНИЯ
ДЛЯ УЛУЧШЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОД В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ**

**EFFICIENCY OF INTRODUCTION OF WATER-SAVING IRRIGATION TECHNOLOGIES
TO IMPROVE WATER USE IN THE FERGHANA VALLEY**

Raxmonov G'olib Axmadjonovich¹

¹Raxmonov G'olib Axmadjonovich

-Farg'ona davlat universiteti Fuqarolik jamiyatiga
kafedrasiga o'qituvchisi.

Annotatsiya

Maqolada istiqlol yillari O'zbekistonda, xususan, Farg'ona vodiysida suvdan foydalanishni yaxshilashda suv tejobchi sug'orish texnologiyalarini joriy etishning afzallik jihatlari, xususan tomchilatib sug'orishning boshqa sug'orish usullariga nisbatan ustunliklarga egaligi birlamchi manbalardagi ma'lumotlar va ilmiy adabiyotlar yordamida tahlil qilingan.

Shuningdek, suv xo'jaligi vazirligi tamonidan suv resurslari sohasidagi hukumat siyosatini ishlab chiqilishi, suv resurslari sohasiga doir yangi texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirishning ustuvor vazifalari tahlil qilingan. Barcha sohalarda suvni iste'mol qilishda uni tejash va suv resurslari sifatini yaxshilashda havzali tashkilotlar uchun siyosat va chora-tadbirlarni ishlab chiqishga qaratilgan xo'jalik ichida suvdan foydalanishni yaxshilash uchun samarali tadqiqot bo'limlarini tashkil etishning ahamiyatli jihatlari Norin-Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi misolida yoritilgan.

Аннотация

В статье анализируются преимущества внедрения водосберегающих технологий орошения в улучшении водопользования в Узбекистане, особенно в Ферганской долине, за годы независимости, в частности преимущества капельного орошения перед другими методами орошения с использованием первоисточников и научной литературы.

В Минводхозе также проанализировали развитие государственной политики в сфере водного хозяйства, приоритеты внедрения и развития новых технологий в сфере водного хозяйства. Нарын-Сырдарьинское бассейновое управление оросительных систем подчеркивает важность создания эффективных научно-исследовательских подразделений по улучшению внутриводного водопользования для разработки политики и мер для водосборных организаций по водосбережению во всех районах на улучшению качества воды

Abstract

The article analyzes the advantages of water-saving irrigation technologies in improving water use in Uzbekistan, especially in the Fergana Valley, over the years of independence, in particular, the advantages of drip irrigation over other irrigation methods, based on primary sources and scientific literature.

The Ministry of Water Resources also analyzed the development of government policy in the field of water resources, the priorities for the introduction and development of new technologies in the field of water resources. The Naryn-Syrdarya Irrigation Systems Basin Department highlights the importance of establishing effective research units to improve on-farm water use to develop policies and measures for watershed organizations to conserve water in all areas and improve water quality

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, suv resurslari, suv xo'jaligi, sug'orish texnologiyalari, qishloq xo'jaligi, yomg'irlatib sug'orish, tomchilatib sug'orish.

Ключевые слова: Ферганская долина, водные ресурсы, водное хозяйство, технологии орошения, сельское хозяйство, дождевой орошение, капельное орошение.

Keywords: Ferghana Valley, water resources, water management, irrigation technologies, agriculture, Naryn-Syrdarya irrigation systems basin management, sprinkler irrigation, drip irrigation.

KIRISH.

O'zbekiston Respublikasi, xususan, Farg'ona vodiysi suv xo'jaligi sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning muhim bo'g'ini sifatida mamlakat Prezidentining 2020 yil 11 dekabrdagi PQ-4919-son "Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori [1] ijrosini to'la ta'minlash maqsadida Norin-Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasida tasarrufida 2021 yilning dekabr oyigacha bo'lgan davrda 25 839 hektar yer maydonida (shundan, tomchilatib sug'orish 10053 hektar, yomg'irlatib sug'orish 660 hektar, diskret sug'orish tizimi 53 hektar, egiluvchan quvur orqali 3480

gektar, egatga pylonka to'shab sug'orish 1750 gektar hamda yerlarni lazerli tekislash 9843 gektar) suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etilganligi [2] dunyoda suv bilan bog'liq muammolar asosan ayni paytda keskinlashib borayotganligi va ko'p qirraliligi bilan xarakterlanadi.

TADQIQOT USULLARI

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Prezidentining «Qishloq xo'jaligida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2019 yil 25 oktyabrdagi PQ-4499-son Qarori [3] hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining suvni tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etish bo'yicha xarajatlarining bir qismmini qoplab berish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2020 yil 19 fevralda 98-son qaroriga binoan suv tejovchi texnologiyalar joriy qilingan maydonlar uchun davlat byudjetidan ajratiladigan subsidiyalar miqdori qishloq xo'jaligi ekinlari turlari va yerlarning bonitet ballaridan kelib chiqib koeffitsientlar orqali hisoblanishi belgilangan. Mazkur hujjatlar asosida 2021 yilning o'tgan 9 oyi davomida Namangan viloyatida jami 107 ta paxta xomashyosi yetishtiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalarining 3695,77 gektar yer maydoniga 29764,1 mln so'm subsidiya mablag'lari to'lab berilishi ta'minlangan [4].

NATIJALAR VA MULOHAZALAR.

Shu bilan bir qatorda, jahon mamlakatlarda toza ichimlik suvi bilan bog'liq muammolar keskinlashib borayotganligi asosiy sabablaridan biri shundan iboratki, suv resurslari sayyora bo'yicha o'ta notekis tarqalgan hamda joylashgan. Bu masaladagi eng og'ir holat esa Osiyo qit'asida kuzatiladi. Ma'lumki, Osiyoda dunyo aholisining 50% dan ortig'i hayot kechiradi, ammo mavjud suv resurslarining faqatgina 36% mazkur qit'aga to'g'ri keladi. Ana shunday holatlarni kelib chiqmasligi oldini olishda O'zbekistonda mavjud suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishda Norin-Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasida xududi sug'orish tizimida egatlab sug'orish usulidan tomchilatib sug'orish usuliga o'tkazish, bir qancha maydonlarni mukammal tekislash va sug'oriladigan maydonlarning hosildorlik qatlamini chuqr qilib yumshatish lozim.

Suvni tejaydigan usullarni qo'llash katta ahamiyatga ega. Xususan, tomchilatib sug'orish boshqa sug'orish usullariga nisbatan quyidagi ustunliklarga ega:

- Tomchilatib sug'orish egatlab sug'orishdan farq qilgan holda barcha sug'oriladigan maydonlarda tuzilmalarni buzmasdan va yuqori gorizont tuproqlarining suv va fizik, fizik hamda mexanik xossalari murakkablashtirmasdan, suvni bir xil taqsimlash hisobiga yuqori sifatli sug'orishning texnologik jarayonini ta'minlaydi;

- Yuqori gorizont tuproqlariga tuzlarni jadal ko'chishiga yo'l qo'ymay, mustasno qiluvchi tuproq namligi darajasini o'zgarishining kichik diapazonini yaratadi;

- Vegetatsiya davomida keng doirada yilning iqlim sharoitlariga bog'liq ravishda suv berishning o'zgarish imkonini hosil qiladi;

- Tuproqning tabiiy unumdorligini tiklash va oshirish uchun sug'orish suvi bilan mineral o'g'itlar, mikroelementlar va kimyoiy meliorantlarni dozalangan miqdorda solishni;

- Tashlama va chuqr fil'tratsiya suvlarini yo'qotishlariga yo'l qo'ymaydi va sug'orish texnikasi FIKining maksimal imkoniyatlari qiymatini 0,98 ga yetkazadi;

- Avtomatlashtirish va mikrojarayonli texnika vositalardan foydalanish asosida yuzaga kelgan iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda sug'orish muddatlari va me'yorlarida qat'iy mahkam turish, maqbullahtirish va sug'orishni tezkor boshqarishni ta'minlaydi.

Norin-Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi hududi bevosita transchegaraviy daryolar bilan bog'langanini inobatga olib, yana shuni aytish joizki mazkur hududdagi suv resurslaridan foydalanishda integrallashgan boshqaruvni qo'llash orqali samarali natijalarga erishish mumkin. Mintaqada suv resurslari notekis tarqalgan bo'lib, undan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu hududda ayni vaqtida taqchil bo'lgan suv resurslarini sifati va miqdoriga salbiy ta'sirlarni kamaytirish asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi.

Jamiyat suv muammolarini hal qilish va suv taqchilligini yumshatish uchun qat'iy choralar qo'rish zarurligini anglab yetmoqda. Suvdan foydalanish bo'yicha eskicha qarashlar tamomila o'zgarmoqda, tabiiy resurslarni boshqarishdagi qotib qolgan usullardan voz kechishning qulay va samarali yo'llari izlanmoqda. Bu jarayon tarmoqlarda jadal rivojlanayotgan tub o'zgarishlar sharoitida kechmoqdaki, bunda nafaqat qonunchilik darajasida, balki barqaror rivojlanish hamda

TARIX

ekologik xavfsizlikka erishish maqsadida yangi ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish, o'zaro harakatlarni ishlab chiqishda maqbul yechimlarni topish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatning turli hududlarida o'tkazilgan ko'plab tadqiqotlar qishloq aholisi, jumladan, xotin-qizlar shaharlklarga qaraganda ko'proq ijtimoiy kapitalga ega ekanligidan dalolat beradi. Bu ularning bir-biri bilan munosabati, xatti-harakati va suv infratuzilmasini soz holatda saqlash uchun barcha imkoniyatlarni ishga solish yulida birlashishida namoyon bo'lmoqda [5]. Ular boshqaruv organlari bilan suv ta'minoti tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun milliy va mahalliy darajada amaliy hamkorlik qilmoqda. Bundan tashqari, qishloq aholisi atrof-muhitni himoya qilish, suvdan oqilona foydalanish, suv sarfini hisoblash, suv uchun haq to'lash, suv ta'minoti tizimi ishida faol ishtirok etishga tayyor deya hisoblash mumkin.

Suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish bu jarayonda mavjud suv resurslaridan rejalahtirilgan va kelishilgan holda barcha imkoniyatlarni inobatga olib boshqarish lozim. Suv resurslaridan turli sektorlarda turli maqsadlarda foydalaniladi, jumladan, ichimlik uchun, sug'orishda, sanitariya, baliqchilik, turizm va boshqa maqsadlarda qo'llaniladi. Transchegaraviy suvlardan foydalanilganda qo'shni davlatlarni ehtiyojlarini inobatga olgan holda har ikki davlat teng huquqli deb qaralib o'zaro hurmat bilan hal qilinishi e'tiborga loyiq. O'zbekiston ham bu borada bir necha marotaba qo'shni Qирг'исистон bilan kelishuvlar olib borgan. Ammo bu kelishuv ko'p marotaba qo'pol ravishda buzilgan. Kelishmovchiliklarni oldini olish maqsadida transchegaraviy daryolardan foydalanishda mamlakatlar o'rtasida suv taqsimlashda suv o'lchash moslamalaridan foydalanish taklifi ma'qul hisoblanadi. Bu har ikki davlatlar uchun ham afzalliklarga ega bo'lib, aniq dalillar asosida suv taqsimlanib beriladi.

O'zbekiston hukumatining suv xo'jaligi siyosati, eng avvalo suvdan oqilona foydalanish va suv resurslarini himoya qilish, mamlakat suv xo'jaligi majmuini boshqarish samaradorligi hamda ishonchlilagini oshirish, mavjud infratuzilmani rekonstruktsiya qilish, undan foydalanish va texnik xizmat ko'rsatish uchun resurslar ajratish orqali suvni kafolatli yetkazib berish, jamiyat va tabiiy ekotizimlarga zarur servis xizmati ko'rsatishni ta'minlashga yo'naltirilgan.

Bugungi kunda suv xo'jaligi tizimi faoliyatining asosiy ustuvor yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- barcha sohalarda suvni iste'mol qilishda uni tejash va suv resurslari sifatini yaxshilash;
- aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash tizimini rivojlantirish;
- tuproq unumdorligini qayta tiklash hamda qulay suv-tuz muvozanatini o'simlik ildizi zonasida ushlab turish;
- tuproqning suv va shamol ta'sirida yemirilishining oldini olish, tog' va tog'oldi hamda cho'l-yaylov hududlarining o'simlik dunyosidan oqilona foydalanish va uni himoya qilish;
- bir-biri bilan o'zaro bog'liq mintaqaviy va milliy muammolarni mutanosib ravishda hal qilish asosida Orolbo'yida ekologik-iqtisodiy tangliklarni salbiy oqibatlarini yumshatish.

Suv fondidan foydalanish va himoya qilish bo'yicha davlat boshqaruvini O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining Suv resurslari bosh boshqarmasi amalga oshiradi. Vakolatlari organ Davergeodezkadastr qo'mitasi bilan hamkorlikda yer osti suvlarini boshqarish uchun javob beradi. 1999 yilda Davlat suv xo'jaligi nazorati tashkil etildi. Uning asosiy vazifasi mamlakatning katta infratuzilmasi ahvolini nazorat qilish, hukumatga uni rekonstruktsiya qilish, takomillashtirish va ishlashidagi kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar kiritishdan iborat.

Respublika Suv xo'jaligi vazirligi suv resurslari davlat boshqaruvi organi hisoblanib, u suv (shuningdek, o'rmon) resurslarini boshqarish, ulardan foydalanish bo'yicha davlat siyosatini yuritadi, O'zbekiston Respublikasining barcha suv xo'jaligi ob'ektlari faoliyatini muvofiqlashtirishga ko'mak beradi. Yuqorida alohida ta'kidlanganidek, 2003 yilda sobiq Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tizimida tarkibiy o'zgarishlar boshlanganida, uning tarkibiga kiradigan tashkilotlar umumiy soni 2,5 baravarga kamaydi, faoliyat maqsadlari, suvdan foydalanuvchilar bilan o'zaro huquqiy munosabatlarga rioya qilish imkoniyatlari hamda javobgarligi o'zgartirildi. Suv xo'jaligi vazirligining suvni boshqarishdagi yangi roli quyidagilardan iborat:

- suv resurslari sohasidagi hukumat siyosatini ishlab chiqish;
- suv resurslari sohasiga doir yangi texnologiyalarni joriy etish va yaxshilash;
- xizmat ko'rsatish muassasalari va korxonalari (bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida ishlayotgan) faoliyatini muvofiqlashtirish;

- suv resurslarini boshqarishni yaxshilash uchun irrigatsiya va drenaj tizimiga mablag' sarflash;
- havzali tashkilotlar uchun siyosat va tadbirlarni ishlab chiqish;
- suvdan foydalanuvchilar uyushmasi uchun nizomlar ishlab chiqishda ko'maklashish;
- daryo havzalarida suv resurslarini birgalikda boshqarishni joriy etish;
- xo'jalik ichida suvdan foydalanishni yaxshilash uchun samarali tadqiqot bo'limlari va turli mazmundagi trening kurslarini tashkil etish.

Shubhasiz, Farg'ona vodiysi Norin-Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasida hududida suvni tejovchi zamонавиу sug'orish texnologiyalarini qo'llashdagi ustuvor vazifalar sifatida quyidagilar ko'rib chiqildi:

- irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi hududida aholi zich joylashganligi va aholi sonini ortib borishi;
- aholining asosan dexqonchilik bilan shug'ulanishini;
- hududdagi gidrotexnik inshootlarni talab darajasida emasligi;
- sug'orma dehqonchilikda suvning ko'p miqdorda yo'qotilishi;
- suvdan foydalanuvchilarni suvdan foydalanish madaniyatini oshirish va boshq.

XULOSA.

Yuqorida keltirilgan taklif va tadbirlarni amalga oshirish Farg'ona vodiyisida qishloq xo'jaligida xosildorlikni oshishiga, ekologik barqarorlik taminlanishiga va provardida aholi turmushi farovonligiga erishish mumkin. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, insoniyat va asosan qishloq xo'jaligi va sahoat uchun eng muhim vositalardan biri bo'lgan suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish bugungi kundagi muhim vazifalardandir. Iqtisodiyotni rivojlanishi va aholi o'sish darajasini tez sur'atlarda borishi suvgaga bo'lgan talabni oshishiga yanada kengroq zamin yaratmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. <https://lex.uz/docs/5157168>
2. Norin-Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining joriy arxiv ma'lumotlari.
3. <https://lex.uz/docs/4568384>
4. Norin-Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining joriy arxiv ma'lumotlari.
5. Suv resurslari va suvdan tejamli foydalanish. O'quv qo'llanma. –Toshkent, 2014.
6. Rakhmonov, G. A. (2021). The History Of Water Resources Modernization Processes In The Ferghana Valley. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(12), 77-81.
7. Raxmonov, G. (2021). Davlatlararo munosabatlarni o'matishda transchegaraviy suv resurslaridan foydalanishning ahamiyati (Farg'ona vodiysi viloyatlari misolida). Jamiyat va innovatsiyalar, 2(11/S), 199-204.

(Taqrizchi: B.Usmanov – tarix fanlari doktori)